TASDIQLAYMAN
O‘quv-uslubiy boshqarma boshlig‘i
_____ I.Madatov
2025-yil 14-oktabr

Kattaqo‘rg‘on davlat pedagogika instituti Pedagogika fakulteti
4-bosqich Pedagogika yo‘nalishi talabalariga 7-semestr uchun
« Bullying va kiberbullying profilaktikasi » fanidan yakuniy nazorat savollari
Imtihon shakli: yozma-og‘zaki

№	Mavzu	1-QISM “OSON SAVOLLAR” deb nomlanadi va semestrda o‘qitilishi rejalashtirilgan mavzularning kirish qismidan asosan nazariy savollardan iborat bo‘ladi	2-QISM “ODDIY SAVOLLAR” deb nomlanadi va semestrda o‘qitilishi rejalashtirilgan mavzularning 1-rejasidan asosan mulohazaviy savollardan iborat bo‘ladi	3-QISM “MURAKKAB SAVOLLAR” deb nomlanadi va semestrda o‘qitilishi rejalashtirilgan mavzularning 2-rejasidan asosan qoidalar, teoremalar, kabi savollardan iborat bo‘ladi	4-QISM “MURAKKAB SAVOLLAR 2” deb nomlanadi va semestrda o‘qitilishi rejalashtirilgan mavzularning 3-rejasidan asosan tendensiyalar, paradigmalar, konsepsiyalar kabi savollardan iborat bo‘ladi	5-QISM “QIYIN SAVOLLAR” deb nomlanadi va semestrda o‘qitilishi rejalashtirilgan mavzularning xulosa yani yakuniy qismidan asosan talabani mustaqil fikrlashga, mavzuni to‘liq anglashga yo‘naltiradigan savollardan iborat bo‘ladi
1.	**Bullying va kiberbullying tushunchasi**	Bullying tushunchasi va uning mohiyati haqida ma’lumot bering. (T.I. bullying, tajovuz, kuch nomutanosibligi)	Dan Olveus ta’rifida bullyingni belgilovchi uchta belgi nimalardan iborat va ular nima uchun muhim? (T.I. takrorlanuvchanlik, qasddan zarar, kuch yoki hokimiyat tengsizligi)	Bullying jarayonidagi asosiy ishtirokchilar rollarini sanab o‘ting.	Bullying va oddiy nizoni farqlovchi mezonlar tizimini (kuch balansi, takrorlanuvchanlik, niyat, ochiqlik) izohlang.	Nima uchun bullyingni 1970-yillargacha bo‘lgani kabi “bolalar orasidagi tabiiy raqobat” deb baholash noto‘g‘ri?
		Kiberbullying tushunchasi haqida ma’lumot bering. (T.I. kiberbullying, raqamli muhit, internet, zamonaviy texnik vositalar)	Kiberbullyingning asosiy belgilarini izohlab bering. (T.I. qasddanlik, zararli ta’sir, 24 soat 7 kun, texnik vositalar)	Vandebosch tasnifiga ko‘ra guvohlar necha turga bo‘linadi?	Kiberfazoda oddiy nizo, trolling va bullyingni qanday farqlash mumkin?	Kiberbullying alohida yuridik atama sifatida kiritilmagan bo‘lsa, pedagog sodir bo‘lgan harakatni qanday huquqiy baholashi kerak?
2.	**Ta’lim jarayonida bullyingning turlari va shakllari**	Bullying turlari va ularning tasnifi haqida ma’lumot bering. (T.I. jismoniy, og‘zaki, ijtimoiy, bevosita, bilvosita)	Jismoniy bullying nima va uning o‘ziga xos belgilari qanday? (T.I. jismoniy kuch, jismoniy izlar, “o‘yin” yoki “hazil” niqobi)	Og‘zaki bullyingga qarshi qo‘llaniladigan “so‘z-qurol, so‘z-qalqon” mashqining mohiyati nimada?	Ijtimoiy bullyingning gender xususiyatlari qanday tendensiyalarda namoyon bo‘ladi?	Jismoniy, og‘zaki va ijtimoiy bullying bir-birini istisno etuvchi qat’iy kategoriyalar emasligini misol bilan asoslang.
		Bullying turlarini ajratib o‘rganishning pedagogik ahamiyati haqida ma’lumot bering. (T.I. tur, tasnif, profilaktika)	Jismoniy bullying og‘irlik darajasi bo‘yicha qanday tasniflanadi? (T.I. yengil daraja, o‘rta daraja, og‘ir daraja, guruhli tajovuz)	Og‘zaki bullyingda “muqoyisali kamsitish” texnikasi nimani anglatadi?	Ijtimoiy bullyingdagi “gaslighting” va “triangulyatsiya” texnikalarini izohlang.	Bevosita va bilvosita tajovuz tasnifini kiberbullying kontekstida qanday qo‘llash mumkin?
3.	**Kiberbullyingning xususiyatlari**	Kiberbullying hodisasining mohiyati va ko‘rinishlari haqida ma’lumot bering. (T.I. ijtimoiy tarmoqlar, messenjerlar, onlayn o‘yinlar)	Kiberbullyingning anonimlik xususiyati an’anaviy bullyingdan qanday farq qiladi? (T.I. anonimlik, tajovuzkor, qurbon)	N.Uillard tasnifidagi kiberzo‘ravonlikning sakkiz turini sanab o‘ting.	Kiberbullyingning erta belgilari qaysi yo‘nalishlarda namoyon bo‘ladi?	Nima uchun kiberbullying an’anaviy bullyingdan xavfliroq hisoblanadi? Fikringizni asoslang.
		Kiberbullyingning an’anaviy bullyingdan tubdan farqlari haqida ma’lumot bering. (T.I. davomiylik (uzluksizlik), raqamli izlar, keng auditoriya qamrovi)	Kiberbullyingda kontentning tez tarqalishi va keng auditoriya qamrovi xususiyatini izohlang. (T.I. tez tarqalish, keng auditoriya, tomoshabin effekti, migratsiya)	Flaming va harassment turlari bir-biridan qanday farqlanadi?	Kiberbullying belgilarini aniqlashda “kuzatuv kundaligi” texnikasi qanday qo‘llaniladi?	Sexting va happy slapping hodisalariga qarshi kurashda nima uchun faqat taqiqlovchi choralar yetarli emas?
4.	**Ta’lim jarayonida bullyingning psixologik omillari**	Bullyingning psixologik omillari haqida ma’lumot bering. (T.I. ichki psixologik dunyo, his-tuyg‘ular, motiv)	Bullerlik xulqini keltirib chiqaruvchi shaxs rivojlanishi omillarini izohlab bering. (T.I. o‘zini boshqalardan ustun qo‘yish, e’tiborga muhtojlik, haddan tashqari o‘ziga ishonch)	Qo‘rquv va tashvish tushunchalari bir-biridan qanday farqlanadi?	“Qorong‘u triada” nazariyasi bullerlik xulqini qanday tushuntiradi?	Nima uchun bitta ishonchli do‘st yoki qo‘llab-quvvatlovchi kattalar qurbonning koping strategiyasini tanlashida hal qiluvchi ahamiyatga ega?
		Bullying hodisasini psixologik nuqtai nazardan o‘rganish nima uchun zarur? (T.I. ichki dunyo, tajovuzkor, qurbon)	Bog‘lanish nazariyasi (attachment theory) bullerlik va qurbonlik moyilligini qanday izohlaydi? (T.I. J.Boulbi, bog‘lanish, g‘amxo‘r shaxs, hayotining birinchi yillari)	Emotsional bosimga bolaning ikki yo‘nalishdagi reaksiyalari qanday namoyon bo‘ladi?	Bullying motivlari qaysi guruhlarga bo‘linadi va instrumental hamda ekspressiv tajovuz qanday farqlanadi?	Qurbonning koping strategiyalaridan qaysi biri eng og‘ir oqibatlarga olib keladigan yo‘llardan biri hisoblanadi va nima uchun?

5.	**Jamiyatda bullyingning ijtimoiy omillari**	Bullyingning ijtimoiy omillari haqida ma’lumot bering. (T.I. ekologik tizimlar nazariyasi, oila, maktab, jamiyat)	Oila muhiti bullying va qurbonlikka moyillikni qanday shakllantiradi? (T.I. birlamchi ijtimoiylashuv, oiladagi zo‘ravonlik, ortiqcha psixologik nazorat)	Maktab va tengdoshlar muhitidagi asosiy xavf omillarini sanab o‘ting.	Ijtimoiy-iqtisodiy tengsizlik va madaniy me’yorlar bullyingga qanday ta’sir qiladi?	Ijtimoiy tarmoqlarning algoritmik tuzilishi va “nazorat bo‘shlig‘i” kiberbullying xavfini qanday oshiradi?
		Bullyingni ekologik tizimlar nazariyasi (Bronfenbrenner modeli) asosida tushuntirishning mohiyatini izohlab bering. (T.I. Bronfenbrenner, ekologik model, oila, maktab, jamiyat)	Diana Baumrindning to‘rt uslubli tarbiya modeli bullyingga moyillikni qanday izohlaydi? (T.I. avtoritar, avtoritativ, ruxsat beruvchi, e’tiborsiz)	“Ijtimoiy moslashuv” va “ijtimoiy dezadaptatsiya” tushunchalari qanday farqlanadi?	“Raqamli notekislik” (digital divide) tushunchasi kiberbullying xavfi bilan qanday bog‘liq?	Kiberijtimoiylashtirish konsepsiyasi bobda ko‘rilgan barcha ijtimoiy omillarni qanday birlashtiradi?
6.	**Bugungi kunda bullying va kiberbullying oqibatlari**	Bullying va kiberbullying oqibatlari haqida ma’lumot bering. (T.I. psixologik, ijtimoiy, ta’limiy, uzoq muddatli oqibatlar)	Bullying qurbonlarida kuzatiladigan asosiy psixologik oqibatlarni izohlab bering. (T.I. xavotirlanish, depressiya, o‘zini past baholash, uyqu buzilishlari)	Maktabga qiziqishning pasayishidan o‘quv o‘zlashtirishining pasayishigacha bo‘lgan oqibatlar zanjirini bayon eting.	Olveus tadqiqotlariga ko‘ra, bullying va kiberbullying ko‘rsatkichlari yosh o‘sishi bilan qanday o‘zgaradi?	Nima uchun bullyingning har bir epizodi kichik ko‘rinsa ham uzoq muddatda jiddiy zarar keltirishi mumkin? (“kumulyativ zarar” asosida izohlang)
		Bullying oqibatlarini o‘rganishning pedagogik ahamiyati haqida ma’lumot bering. (T.I. oqibat, rivojlanish trayektoriyasi, profilaktika)	Bullying jarayoni agressor va guvohlarga qanday psixologik ta’sir ko‘rsatadi? (T.I. agressor, guvoh, ikkinchi darajali travmatizatsiya)	Kiberbullyingda “raqamli iz orqali travmaning qayta jonlanishi” hodisasi nimani anglatadi?	Bullying statistikasini talqin qilishda qanday metodologik ehtiyotkorlik talab etiladi?	“Chidamlilik” (resilience) va himoya omillari uzoq muddatli oqibatlarni qanday yumshatadi?
7.	**Ta’lim muassasalarida profilaktika tizimi**	Ta’lim muassasalarida bullying profilaktikasi tizimi haqida ma’lumot bering. (T.I. profilaktika, maqsadli, izchil, ko‘p qatlamli tizim)	Profilaktik ishlarning asosiy yo‘nalishlarini izohlab bering. (T.I. nol-tolerantlik, anonim murojaat, butun muassasa miqyosidagi yondashuv)	Sue Youngning “Ayblamaslik yondashuvi” (No Blame Approach) qanday tamoyilga asoslanadi?	Profilaktika strategiyasining besh tamoyilini tushuntiring.	Ta’lim muassasasining ma’muriy-huquqiy javobgarligi nimada ifodalanadi va uni profilaktika tizimiga qanday integratsiya qilish mumkin?
		Butun muassasa miqyosidagi (whole-school) yondashuv haqida ma’lumot bering. (T.I. whole-school, ma’muriyat, o‘qituvchilar, texnik xodimlar, ota-onalar)	Monitoring va erta aniqlash tizimi qanday tashkil etiladi? (T.I. psixolog, ijtimoiy pedagog, monitoring, konsultatsiya)	Restorativ (tiklovchi) adolat metodikasi an’anaviy jazolovchi yondashuvdan nimasi bilan farq qiladi?	Besh tamoyilga qo‘shiladigan izchillik va uzluksizlik tamoyillari nimani anglatadi?	Janubiy Koreya tajribasidan kelib chiqib, O‘zbekistonda huquqiy javobgarlik mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha fikringizni bildiring.
8.	**Ta’lim muassasasini ota-onalar bilan hamkorlik ishlari**	Ota-onalar va mahalla bilan hamkorlikning profilaktikadagi o‘rni haqida ma’lumot bering. (T.I. oila, mahalla, hamkorlik, ijtimoiy institutlar)	Ota-onalar bilan ishlashning asosiy yo‘nalishlarini izohlab bering. (T.I. xabardor qilish, ishonchli muloqot, oilaviy media-shartnoma)	Farzand bullying qurboni bo‘lganda ota-ona qanday harakat qilishi kerak?	Mahalla institutining (Yoshlar yetakchisi, Nuroniylar kengashi, ayollar faollari) bullying profilaktikasidagi imkoniyatlarini izohlang.	Oila–maktab–mahalla uchligi modelida “javobgarlikni bir-biriga o‘tkazish” nima uchun xavfli va uni qanday bartaraf etish mumkin?
		Oila va maktab o‘rtasidagi hamkorlikning ahamiyati haqida ma’lumot bering. (T.I. hamkorlik, ishonch, axborot almashinuvi)	Ota-onaning raqamli xulq-atvor namunasi (modeling) farzandga qanday ta’sir qiladi? (T.I. modeling, kiberijtimoiylashtiruvchi ota-ona, raqamli xulq)	Bola kiberbullyingga uchraganda uning qurilmasini jazo tariqasida tortib olish nima uchun tavsiya etilmaydi?	“Mahalla faoli–maktab vakili” institutining mohiyati nimada?	Oila–maktab–mahalla uchligini raqamli hamjamiyat bilan “to‘rtlik”ka kengaytirish nima beradi?
9.	**Bullying va kiberbullyingda xalqaro tajribalar va amaliyotlar**	Bullyingga qarshi xalqaro tajribalarning umumiy xususiyatlari haqida ma’lumot bering. (T.I. antibulling dasturlari, ilmiy asoslanganlik, davlat siyosati)	Olveus dasturining (OBPP) to‘rt tamoyilini izohlab bering. (T.I. issiqqonlik, qat’iy chegaralar, izchil sanksiyalar, ijobiy namuna)	KiVa dasturining tuzilishi va asosiy komponentlarini sanab o‘ting.	Turli mintaqalardagi antibulling dasturlarining qaysi umumiy tendensiyalari barqaror natija beradi?	Xalqaro tajribani O‘zbekistonga mexanik ko‘chirish emas, moslashtirish nima uchun maqbul hisoblanadi?
		Raqamli madaniyat va kiberxavfsizlik tushunchalari haqida ma’lumot bering. (T.I. kiberxavfsizlik, shaxsiy ma’lumotlar, maxfiylik sozlamalari)	Olveus dasturida ilmiy monitoring tizimi qanday ishlaydi? (T.I. anonim so‘rovnoma, yiliga bir marta, kuzatuv guruhi)	KiVa dasturi kuzatuvchi bolalar (bystanders) roliga nima uchun alohida urg‘u beradi?	AQSh va Yangi Zelandiyada kiberbullying uchun jinoiy javobgarlikning qonun yo‘li bilan mustahkamlanishi qanday tendensiyani ko‘rsatadi?	Raqamli fuqarolik va “upstander” (faol pozitsiya egallovchi) yondashuvi kiberbullying madaniyatini qanday o‘zgartiradi?